**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI**
**XORAZM VILOYAT KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI**

# BUYRUQ

“01” 06 2023-yil № 111-son **Urganch shahri**

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respubiikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 90-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlami bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ulaming hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlami aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini (ro‘yxat raqami: 3383,2022-yil 31-avgust) shuningdek, ijrosini O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi **“O‘zbekiston Respubiikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 90-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida

## BUYURAMAN:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi **“O‘zbekiston Respubiikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 90-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Vazirlikning mazkur buyrug‘i bilan:

- O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlami aniqlash va baholash uslubiyoti tasdiqlanganligi amalda foydalanish uchun qabul qilinsin.

**3.** Xorazm viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi markaziy apparati, tuzilmadagi boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlami aniqlash va baholash uslubiyoti asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

**4.** Bosh boshqarmaning Komplaens nazorat bosh mutaxassisi (Z.Xodjayev) Vazirlikni buyrug‘i asosida tasdiqlangan vazirlik tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlami aniqlash va baholash uslubiyoti asosida bosh boshqarma markaziy apparati, tizimdagi boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan ishlarni tashkil etilishi yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatsin va har chorak yakuni bilan qilingan ishlar yuzasidan raxbariyatga va vazirlikga axborot kiritsin.

**5.** Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘i v.b** **Sh.Berdiyev**